

**QO‘QON UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.I.25.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON UNIVERSITETI**

**MELIBAYEVA GULXON NAZRULLAYEVNA**

**KICHIK BIZNES KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI**  
**OSHIRISH MEXANIZMLARI**

**08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Melibayeva Gulxon Nazrullayevna**

Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.....3

**Мелибаева Гулхон Назруллаевна**

Механизмы повышения конкурентоспособности малого бизнеса.....27

**Melibayeva Gulkhon Nazrullayevna**

Mechanisms for increasing the competitiveness of small businesses.....55

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....60

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi  
Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3592 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.kokanduni.uz](http://www.kokanduni.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Toshpulatov Ikboljon Adiljonovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.I.25.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55; e-mail: [info@kokanduni.uz](mailto:info@kokanduni.uz)).

Dissertatsiya bilan Qo'qon universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



**J.H. Kambarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**B.F. Xursanaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, v.b. dotsent

**E.A. Muminova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida kichik biznes sohasida raqobatning kuchayishi, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish hamda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan raqamli tizimlarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Buni sanoat - 4.0 kabi dasturlarni kirib kelishi bilan ham izohlash mumkin. Raqobatbardoshlikni ta'minlash va mahsulotlarlar sifatini oshirish uchun smart korxonalar konsepsiyalari, ishlab chiqarishdagi xarakatlarni kiberfizik tizimlar orqali raqamlashtirishga bo'lgan intilish, mahsulotlarni iste'molgacha bo'lgan davrini raqamli nazorat qilish, haridorlar hohish-istaklarini o'rganish uchun katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash kabi xalqaro trendlar keng tarqalmoqda. Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Daniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda oziq-ovqat sanoatini robotlashtirish, startaplarni keng miqyosda moliyalashtirish, ilmiy-innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etish masalalari rivojlanib bormoqda<sup>1</sup>. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab ekin mahsulotlari qariyb 10 milliard tonna, chorva go'sht mahsulotlari 321 million tonnani tashkil etadi. Narxlar indeksi esa 2024 yilda 122%ga ortgan<sup>2</sup>. Mazkur sohada iste'mol narxlarini indeksini barqarorlashtirish va taklif etilayotgan mahsulotlar sifatini ta'minlash uchun bozorda keskin raqobat muhitini shakllantirish va ushbu tarmoqda raqamli transformatsiyani amalga oshirish masalalari hal etilishi zarur bo'lgan ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va uni ilmiy jihatdan tadqiq etish ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mahsulotlarning yuqori sifati, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishning mavjudligi va raqamlashtirilgan tizimlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, innovatsion yechimlarni joriy etish raqobatbardoshlikni boshqarish strategiyasining samarali amalga oshirilishi natijasi hisoblanadi. Shuningdek, bozorning erkin transformatsiyasi kechayotgan bir davrda oziq-ovqat sanoati korxonalarining yangi raqobatchilarini paydo bo'lishi hamda iste'molchilarning talablari oshib borishi natijasida raqobatbardoshlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan ishlar jadallashib bormoqda. Bunda korxonaning bozor bilan aloqalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida marketing faoliyatida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internet reklama, ijtimoiy tarmoqlar va elektron tijorat platformalari kabi raqamli marketing vositalari korxonalariga keng auditoriyaga chiqish, mijozlar bilan bevosita muloqot qilish va bozor ulushini oshirish imkonini bermoqda. Bunday sharoitlarda ilmiy asoslangan yondashuvlarga oziq-ovqat sanoati korxonalariga ichki bozorda barqaror raqobat

---

<sup>1</sup>[https://investinholland.com/doing-business-here/industries/agrifood/?utm\\_source=;](https://investinholland.com/doing-business-here/industries/agrifood/?utm_source=)

[https://www.startupblink.com/blog/top-cities-countries-for-foodtech-startups/?utm\\_source=;](https://www.startupblink.com/blog/top-cities-countries-for-foodtech-startups/?utm_source=)

[https://www.reuters.com/investigations/less-rain-more-wheat-how-australian-farmers-defied-climate-doom-2025-07-29/?utm\\_source=.](https://www.reuters.com/investigations/less-rain-more-wheat-how-australian-farmers-defied-climate-doom-2025-07-29/?utm_source=)

<sup>2</sup>[https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/agricultural-production-statistics-2010-](https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/agricultural-production-statistics-2010-2023/en?utm_source=)

[https://www.reuters.com/markets/commodities/world-food-price-index-eases-dec-pushed-lower-by-sugar-2025-01-03/?utm\\_source=.](https://www.reuters.com/markets/commodities/world-food-price-index-eases-dec-pushed-lower-by-sugar-2025-01-03/?utm_source=)

ustunligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mahsulotlar sifatini oshirishning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq qilish, xodimlarning professional o'sishi va haridorlar manfaatlarini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish ilmiy tadqiqotlarning muhim va ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Korxonalarda raqobatbardorshlikni ta'minlash, bozorga taklif etilayotgan mahsulotlarni sifat va narx jihatidan barqarorligini ta'minlash, bu borada muassasalarning ham mas'uliyatini oshirib borish bo'yicha qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston-2030<sup>3</sup> strategiyasining 2-bandi barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, 17 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Xususan, uning 45-maqsadida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, 47-maqsadda mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish hamda 55-maqsad milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Bu kabi islohotlar mazkur soha raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq ilmiy ishlar salmog'ini intensiv oshirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-10-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 10-noyabdagi PF-193-son "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 21-noyabdagi PF-198-son "Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2011-yil 24-avgustdagi PF-4354-son "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-312-son "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 15-noyabdagi PQ-366-son "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 20-oktyabrdagi PQ-5262-son "Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/6600413>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Korxonalarda raqobatbardoshlikni ta’minlash, bozor sharoitlariga tez moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, bu jarayonlarda marketing va boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish kabi masalalar xalqaro miqyosda xorijlik olimlar Adam Smit, Maykl Porter, Filip Kotler, Igor Ansoff, Genri Minsberg, Piter Druker, Uilyam Edvards Deming, Djozef Djuran, Robert Kaplan, Devid Norton, Jan Jak Lamben, Tomas Pitera, Jey Barni, Pol Krugman, Richard Taler, Oliver Xart, Bengt Xolmstryom, Deniyel Kaneman, Angus Diton, U.Chan Kim, Rene Moborn, Kleyton Kristensen, Skott Gallovey, Alan Lafli, Marshall Goldsmit, Saymon Sinek kabilarning tadqiqotlaridan o‘rin olgan<sup>4</sup>.

Bu masalalar MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan bo‘lib, korxonalarda raqobat muhitining rivojlanishi, raqobatbardoshlik strategiyalari, bozor tahlili, tibbiy xizmatlarda innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlarda V.P.Bocharnikov, A.A.Tompson, Ye.P.Golubkov, O.S.Vixanskiy, A.P.Gradov, V.N.Gerasimenko, I.V.Mayorov, Yu.P.Aniskin, Ye.I.Xolkina, S.N.Belousov, N.A. Nikolayev, M.A. Slonimskaya, Y.B. Maley va boshqa qator olimlar izlanishlar olib borganlar<sup>5</sup>.

O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobat muhitini rivojlantirish, innovatsion boshqaruv va marketing strategiyalarini joriy etishga oid

---

<sup>4</sup> Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.; Marshall, A. (1890). *Principles of Economics*. London: Macmillan and Co., Ltd; Keynes, J.M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan; Porter, M. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press; Kotler, F. (1991). *Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall; Ansoff, I. (1965). *Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion*. New York: McGraw-Hill; Minsberg, G. (1973). *The Nature of Managerial Work*. New York: Harper & Row; Druker, P. (1954). *The Practice of Management*. New York: Harper & Brothers; Deming, W.E. (1986). *Out of the Crisis*. Cambridge, MA: MIT Press; Juran, J. (1988). *Juran's Quality Control Handbook*. New York: McGraw-Hill; Kaplan, R., & Norton, D. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Boston, MA: Harvard Business School Press; Kim, U.Ch., & Moborn, R. (2005). *Blue Ocean Strategy: How to Create Uncontested Market Space and Make the Competition Irrelevant*. Boston, MA: Harvard Business School Press; Kristensen, K. (1997). *The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail*. Boston, MA: Harvard Business School Press; Sinek, C. (2009). *Start with Why: How Great Leaders Inspire Everyone to Take Action*. New York: Portfolio; Krugman, P. (1998). *The Accidental Theorist: And Other Dispatches from the Dismal Science*. New York: W.W. Norton & Company; Taler, R. (2015). *Misbehaving: The Making of Behavioral Economics*. New York: W.W. Norton & Company; Hart, O. (2016). *Incomplete Contracts and Control*. *Journal of Economic Perspectives*, 30(2), 67–86; Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux; Deaton, A. (2013). *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*. Princeton, NJ: Princeton University Press.

<sup>5</sup>Бочарников, В.П. (2000). *Управление конкурентоспособностью предприятия*. Москва: Экономика; Виханский, О.С. (2006). *Стратегическое управление*. Москва: Гардарики; Голубков, Е.П. (1998). *Маркетинг: стратегия, планы, структуры*. Москва: Дело; Градов, А.П. (2001). *Стратегическое планирование на предприятии*. Санкт-Петербург: Питер; Герасименко, В.Н. (2004). *Конкурентоспособность предприятия: теория и практика*. Москва: Финансы и статистика; Николаев Николай Алексеевич — *Методический подход к определению конкурентоспособности персонала предприятия*. КиберЛенинка, 2013; Слонимская М.А., Малей Е.Б. *ва бошқалар — Логистический подход к управлению конкурентоспособностью субъектов хозяйствования в условиях перехода к устойчивому развитию Республики Беларусь*. Полоцкий государственный университет, 2021; Чайникова Л.Н., Чайников В.Н. — *Конкурентоспособность предприятия*. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007.

tadqiqotlar mamlakatimiz olimlari- S.S.G‘ulomov, N.Q.Yo‘ldoshev, N.M.Mahmudov, Sh.N.Zaynutdinov, G‘.E. Zaxidov, J.X.Kambarov, I.Y.Umarov, M.Bo‘taboyev, A.M.Kadirov, A.Alimov, A.V.Vahobov, D.N.Rahimova, A.Fayziyev, B.M.Mamatqulov, A.R.Karimov, S.T.Raxmatov va boshqa bir qator mahalliy olimlar hamda tadqiqotchilarning ishlarida<sup>6</sup> o‘z aksini topgan.

Biroq, oziq-ovqat sanoati korxonalarini misolida raqobatbardoshlikni (mahsulot sifati, narx darajasi, innovatsion faollik kabi ichki va tashqi omillarni birgalikda qamrab olgan holda) kompleks va integrasion yondashuv asosida baholash hamda ushbu korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish strategiyalarini takomillashtirish kabi masalalar hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektdan foydalangan holda integratsiyalashgan axborot tizimlariga asoslangan yangi boshqaruv mexanizmlari va bozor tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilish imkonini beruvchi prognoz ssenariylarini ishlab chiqish zaruriyati ilmiy adabiyotlarda yetarlicha aks etmay kelmoqda. Mazkur holat esa ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qo‘qon universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kichik biznes va tadbirkorlik sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning nazariy jihatlarini va raqobatbardoshlik orqali kichik biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ochib berish;

kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini baholash orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini amalga oshirish;

kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlillarini keltirish;

kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish tizimlarini joriy etish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

---

<sup>6</sup>G‘ulomov, S.S. (2005). Iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy usullari. Toshkent: O‘zbekiston; Yo‘ldoshev, N.Q. (2010). Korxonalarda strategik boshqaruv asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot; Mahmudov, N.M. (2012). Tibbiyot muassasalarida menejment va marketing. Toshkent: Shifo; Zaynutdinov, Sh.N. (2014). Sog‘liqni saqlash tizimida innovatsion boshqaruv. Toshkent: Ilm; Ирина Владимировна Роздольская, Ибрахим Набиевич Исманов, Татьяна Леонидовна Скрипченко (2019). Содержательное пространство софтизации менеджмента в системе стратегического управления организацией. Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. С. 134-135; Mamatqulov, B. M., & Mirzabayeva, S. A. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning strategik yo‘nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2015, 254-259; Karimov, A. R. O‘zbekiston sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash strategiyasi. Toshkent: Fan, 2018, 125-126; Raxmatov, S. T. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020, 46-51.

kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash siyosati natijalarining prognozini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Farg'ona viloyatining oziq-ovqat sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subektlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sanoat korxonalarida raqobat va raqobatbardoshlik tushunchalarining bozor tizimidagi mavqeyini ochib berish hamda ushbu yo'nalishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, monografik, grafik, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy klaster yondashuv, prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kichik biznes korxonalarida raqobatning shakllanish omillari, unga qo'yiladigan talablar, raqobatning korxonalar faoliyatiga ta'siri, ilg'or yondashuvlari va baholash mexanizmlari asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash tizimi asoslangan;

kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshiruvchi, resurslardan foydalanishning optimal yo'nalishlarini belgilovchi hamda ularning iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi hissasini kuchaytiruvchi boshqaruv vositasini shakllantirish taklif etilgan;

kichik korxonalarda LIFO, FIFO, AVECO, direct-kosting, absorption-kosting va ABC-kosting yondoshuvlari asosida 5-10% tannarx xarajatlarini kamaytirishga hamda foydani 10-12%ga oshirishga olib keladigan integratsiyalashgan COST-FLEX tizimi ishlab chiqilgan;

mahsulot hajmi, bozor ulushi, narx raqobatbardoshligi, foyda marjasi, qoniqish darajasi, takroriy xaridorlar, innovatsion mahsulotlar ulushi va hodimlar bilan ta'minlanganlik omillari asosida Sadaf Sut hamda Benazir korxonalarini rivojlanishining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ssenariyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar va mexanizmlar ilmiy-amaliy jihatdan aniqlanib, ular bozordagi mavqeni mustahkamlash, mahsulot sifati, tannarxni kamaytirish va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan tizimlashtirildi hamda ularning korxonalar faoliyatidagi amaliy ahamiyati asoslab berildi;

kichik biznes korxonalarida mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash uchun AIDA, SWOT va PEST tahlillari asosida yangi integrasion tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizim korxonalarining ichki imkoniyatlari va tashqi bozordagi holatini aniq baholash, marketing va raqamli transformatsiya sohasidagi strategik yo'nalishlarni aniqlash imkonini yaratdi;

kichik biznes korxonalarini uchun marketing samaradorligini oshirishga qaratilgan COST-FLEX modeli ishlab chiqildi va joriy etildi. Ushbu model LIFO, FIFO, AVECO hamda direct-kosting, absorption-kosting va ABC-kosting usullarini integratsiyalash orqali xarajatlarni optimallashtirish va narx siyosatini moslashuvchan holda boshqarishga imkon yaratdi;

“Sadaf Sut” va “Benazir” MCHJ korxonalarida CRM, ERP tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga asoslangan raqamli marketing

platformasi ishlab chiqilib, bu platforma orqali mijozlar bilan aloqalarni boshqarish samaradorligi, mijoz sadoqati darajasi va bozordagi mahsulotlarni sotish hajmini 5% ga oshirishga erishildi;

kichik biznes korxonalarining 2030-yilgacha bo'lgan raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bo'yicha optimistik, dinamik va pessimistik ssenariylar ishlab chiqilib, ularning har biri uchun maxsus regressiv modellar asosida prognozlar amalga oshirildi. Ushbu prognozlar korxonalarining uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirishda amaliy asos sifatida qo'llanildi;

ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va raqamli marketing strategiyalarini amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar "Sadaf Sut" va "Benazir" MCHJ korxonalarining biznes jarayonlariga tatbiq etildi, bu esa mahsulot tannarxini optimallashtirgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlillar va statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tgani hamda amaliyotga joriy etilgani, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan ma'qullangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada shakllangan nazariy xulosalar, taklif va metodologik yondashuvlar asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarishning zamonaviy nazariy konsepsiyalarini takomillashtirish, sohaga xos strategik boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etishning yangi ilmiy modellarini shakllantirish imkoniyati, ishlab chiqilgan integrasion baholash usullari, smart-konsepsiyaga asoslangan biznes-modellar hamda prognoz ssenariylari kelajakda tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni taklif etilayotgan bozori va boshqaruv tizimlarini ilmiy jihatdan yanada chuqurroq tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan oziq-ovqat sanoati korxonalarida, ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlik darajasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarda raqobat muhitini tahlil qilish, raqobatbardoshlikni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, tadqiqot natijalarini mahsulot ishlab chiqarish sifatini oshirish, innovatsion va raqamli yechimlarni tatbiq qilish, mazkur jarayonlarini avtomatlashtirish, iste'mol tovarlari bozorida risk va mavjud tahdidlarga qarshi strategik rejalarni shakllantirishda hamda raqobatbardoshlikni boshqarish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, hamda respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida "Mikroiqtisodiyot", "Kichik biznes asoslari", "Sanoat iqtisodiyoti", "Marketing" kabi fanlarning o'quv dasturlari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarining mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik biznes korxonalarida raqobatning shakllanish omillari, unga qo'yiladigan talablar, raqobatning korxonada faoliyatiga ta'siri, ilg'or yondashuvlari va baholash mexanizmlari asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash tizimiga doir

taklifi “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalari faoliyatlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi 2025-yil 16-dekabrda 05-33-14170-sonli, “Sadaf sut” korxonasi 2025-yil 22-mayda va “Benazir” korxonasi 2025-yil 24-mayda ma’lumotnomalari). Natijada, “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalarining oziq-ovqat mahsulotlari bozorida sotuv hajmini 5 foizga ortishga erishilgan;

kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshiruvchi, resurslardan foydalanishning optimal yo‘nalishlarini belgilovchi hamda ularning iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi hissasini kuchaytiruvchi boshqaruv vositasini shakllantirish taklifi “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalari faoliyatlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi 2025-yil 16-dekabrda 05-33-14170-sonli, “Sadaf sut” korxonasi 2025-yil 22-mayda va “Benazir” korxonasi 2025-yil 24-mayda ma’lumotnomalari). Natijada, “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalarining bozorni o‘rganish va tahlil qilishga sarflanadigan xarajatlarini 2,5 foizga kamayishga erishilgan;

kichik korxonalarda LIFO, FIFO, AVECO, direct-kosting, absorption-kosting va ABC-kosting yondoshuvlari asosida 5-10% tannarx xarajatlarini kamaytirishga hamda foydani 10-12% ga oshirishga olib keladigan integratsiyalashgan COST-FLEX tizimiga doir taklifi “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalari faoliyatlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi 2025 yil 16-dekabrda 05-33-14170-sonli, “Sadaf sut” korxonasi 2025 yil 22 mayda va “Benazir” korxonasi 2025-yil 24-mayda ma’lumotnomalari). Natijada, “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalari tominidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini optimallashtirilganligi hisobiga mos ravishda 5,3 va 8,7 foizga pasayishga erishilgan;

mahsulot hajmi, bozor ulushi, narx raqobatbardoshligi, foyda marjasi, qoniqish darajasi, takroriy xaridorlar, innovatsion mahsulotlar ulushi va hodimlar bilan ta’minlanganlik omillari asosida korxonalar rivojlanishining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ssenariyalariga doir taklifi “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalari faoliyatlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi 2025 yil 16-dekabrda 05-33-14170-sonli, “Sadaf sut” korxonasi 2025-yil 22-mayda va “Benazir” korxonasi 2025-yil 24-mayda ma’lumotnomalari). Natijada, ushbu prognoz ssenariylari asosida “Sadaf sut” hamda “Benazir” korxonalarining 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g‘oyasi va natijalari ma’ruzalar shaklida 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma’qullangan.


**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, kichik biznes faoliyatining rivojlanish evolutsiyasi va unda raqobatbardoshlikning o‘rni, raqobatbardoshlik orqali kichik biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari hamda kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash masalalari asoslab berilgan.




**1-rasm. Kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash tizimi<sup>7</sup>.**

Kichik biznes subektlarining raqobatbardoshligi ularning iqtisodiy tizimdagi muvaffaqiyati va barqaror o‘shishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Raqobatbardoshlikni ta‘minlash kichik korxonalar uchun murakkab jarayon bo‘lib, u samarali boshqaruv, innovatsion yondashuvlar va resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ushbu tizim kichik biznes subektlarini boshqarishning uchta bosqichi – operativ, taktik va strategik bosqichlar orqali raqobatbardoshlikni oshirishni maqsad qiladi. Har bir bosqich alohida mezonlar, vazifalar va baholash usullari bilan ajralib turadi.




## 2-rasm. Kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish modeli<sup>8</sup>

Kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni umumlashtirib, ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillar. Bu omillar kichik biznesning ichki resurslaridan samarali foydalanishini va tashqi bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan.

Raqobatbardoshlikni oshirishning muhim jihatlaridan biri korxonaning raqobat ustunliklarini shakllantirishdir. Bu ustunliklar kichik biznesning noyob mahsulot yoki xizmatlar taklif etishi, mahalliy mijozlar bilan yaqin aloqalar o'rnatishi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va bozor sharoitlariga moslashuvchanlik ko'rsatish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Ushbu ustunliklar korxonaning bozorda ajralib turishiga va mijozlar sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada barcha resurslar va qobiliyatlar korxonaning samaradorligini oshirishga qaratiladi.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



### 3-rasm. Kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy rivojlanishga taʼsirini baholash mexanizmi<sup>9</sup>

Kichik biznes korxonalari resurslarini samarali boshqarish, qobiliyatlarini rivojlantirish va raqobat ustunliklarini shakllantirish orqali bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Bu jarayonni chuqur

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tahlil qilish va to'g'ri strategiyalarni ishlab chiqish orqali kichik biznes o'zining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kichik biznes raqobatbardoshligini ta'minlash tendensiyalari”** deb nomlanib, unda kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, raqobat muhitida kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini tahlil qilish va kichik biznes korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritib berilgan.

Makroiqtisodiy omillar nuqtai nazaridan, iqtisodiy o'sish kichik biznes subektlarining ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishiga imkon yaratdi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2015-yilda 39,6 trillion so'mdan 2024-yilda 286,7 trillion so'mga yetdi. Bunday o'sish sanoat tarmoqlarining rivojlanib borayotgani, yangi texnologiyalar joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligi ortgani bilan izohlanadi. Xuddi shunday, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 barobarga oshib, kichik biznesning agrar sohada ham raqobatbardoshligini mustahkamladi. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish kichik biznesning xizmatlar sohasidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirdi. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 47,3 trillion so'mdan 466,5 trillion so'mga yetib, 10 barobarga o'sdi. Bu raqamlar kichik biznes subektlarining axborot texnologiyalari, elektron tijorat va raqamli xizmatlar bozorida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Yangi texnologiyalar mijozlar bilan ishlash sifatini oshirib, bozor talabiga tez moslashish imkonini berdi.

## 1-jadval

### 2018-2024 yillarda jahonda kichik biznes kompaniyalar raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi yetakchi risklar tasnifi(foizlarda)<sup>10</sup>

№	Risklar tasnifi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Kiber hodisalar	30	32	35	35	39	31	32
2	Tabiiy ofatlar	28	27	18	14	21	15	24
3	Makroiqtisodiy o'zgarishlar	-	-	14	15	15	28	23
4	Biznes ta'minot zanjirining uzilishi	33	26	28	34	32	23	23
5	Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar	22	30	29	21	21	20	21
6	Yong'in, portlashlar	-	21	17	13	14	13	20
7	Malakali ishchi kuchining yetishmasligi	-	-	-	-	16	17	16
8	Bozor rivojlanishi	27	27	27	20	18	14	16
9	Energiya resurslari yetishmovchiligi	-	-	-	-	-	23	13
10	Iqlim o'zgarishi	-	13	15	11	14	15	13

Kichik biznes uchun qaysi xavflar dolzarb bo'lib qolayotganini tushunish hamda ularga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, kichik biznes kompaniyalari kelajakda raqamli xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ta'minot zanjirlari bilan bog'liq muammolarni minimallashtirish uchun tegishli choralar ko'rish zarur. Shu bilan birga, ekologik o'zgarishlar va me'yoriy-huquqiy talablarni hisobga olib, moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish muhimdir.

<sup>10</sup> <https://www.statista.com/statistics/1018196/leading-small-business-risks-globally/>

Ushbu global xatarlarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonda ham kichik biznes subektlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qator mexanizmlar ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga joriy etilmoqda



#### **4-rasm. Kichik biznes subektlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar<sup>11</sup>**

Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va bandlikni oshirishda asosiy drayverlardan biri sifatida faol ishtirok etib, savdo, xizmatlar, qishloq xo‘jaligi, transport, yuk va yo‘lovchi tashish kabi yo‘nalishlardagi hajmiy ko‘rsatkichlari 2015–2024 yillar davomida ijobiy dinamikani namoyon qilmoqda. Bu esa kichik biznes subektlarining bozor iqtisodiyoti talablariga moslashuvchanligi, ichki va tashqi raqobatga tayyorligi hamda iqtisodiy muhitda faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

**Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi<sup>12</sup>, (mlrd so‘mda)**

Tarmoqlar Yil	Sanoat	Qurilish	Savdo	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	Xizmatlar
2015	3 075,3	1 462,4	5 543,4	9 119,6	3 985,9
2016	3 652	1 642,8	7 077,6	9 932,9	5 163,8
2017	3 864,2	1 707,4	8 236,1	12 564,1	5 742,5
2018	5 368,5	2 707,4	9 957,8	17 493,4	6 891,4
2019	7 205	3 759,8	12 148,1	18 382,5	8 439,6
2020	9 986,8	5 010,9	14 675,2	20 967,8	9 758,6
2021	12 708,2	6 099,1	19 232,1	27 095,3	12 186,4
2022	13 323,4	6 951,3	20 813,8	33 723,5	14 150,6
2023	17 508,5	7 860,2	24 728,2	37 501,4	17 568,4
2024	19 341,4	13 098,3	28 938,8	42 155,1	25 770,5


2015-yilda kichik biznesning savdo hajmi 5543,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 28938,8 mlrd.so‘mga yetib, 5,2 barobar o‘sgan. Bunga iste‘mol bozoridagi talabning ortishi, chakana savdoning raqamlashtirilishi va elektron tijoratning rivojlanishi sabab bo‘lgan. Raqamli savdo platformalaridan foydalanish va yetkazib berish tizimini rivojlantirish raqobatbardoshlikni yanada oshiradi. Qishloq xo‘jaligida esa 2015-yildagi 9119,6 mlrd.so‘mlik hajm 2024-yilda 42155,1 mlrd.so‘mga yetgan (4,6 barobar). 2020-yildan boshlab o‘shish tezlashgan bo‘lib, subsidiya va davlat dasturlarining ta‘siri seziladi. Shu bilan birga, texnologik eskirish, yer va suv resurslari muammolari saqlanib qolmoqda. Mahsuldorlik, sertifikatlash va logistika jarayonlarini takomillashtirish bu yo‘nalishda raqobat ustunligini ta‘minlaydi. Xizmatlar sektori past kirish to‘siqlari va yuqori talab sababli 2021-yildan eng tez o‘sayotgan yo‘nalish bo‘lib, hajm 2021-yildagi 12186,4 mlrd.so‘mdan 2023-yilda 17568,4 mlrd.so‘mga yetgan. Transport-logistika xizmatlari ham izchil o‘smoqda. Yuk tashish hajmi 2015-yilda 50,7 million tonna bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 62,1 million tonnaga yetgan. Yuk aylanmasi 971,2 million tonna-km dan 2031,1 million tonna-km ga oshgan. Bu kichik transport korxonalarining logistika zanjiridagi faolligini ko‘rsatadi. Yo‘lovchi tashish hajmi 533,9 milliondan 696,5 million kishiga, yo‘lovchi aylanishi esa 11684,1 million yo‘lovchi-km dan 15964,7 million yo‘lovchi-km ga oshgan. Bu sohada raqobat texnik park yangilanishi, yo‘l infratuzilmasi va raqamli xizmatlar (GPS, mobil ilovalar) orqali shakllanmoqda.

2015-yilda Farg‘ona viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subektlari soni 18036 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 55187 taga yetib, 3 baravar o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu esa viloyatda raqobatbardosh tadbirkorlik muhitining shakllanayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda eng ko‘p tadbirkorlik subektlari Qo‘qon shahri (6495 ta), Marg‘ilon shahri (5299 ta), va Farg‘ona shahri (5135 ta)da to‘plangan bo‘lib, bu hududlar viloyat markaziy nuqtalari sifatida yuqori aholiga ega, transport infratuzilmasi rivojlangan va xizmat ko‘rsatish sektori faol ekani bilan izohlanadi. 2015-yildan 2024-yilgacha eng keskin o‘shish Toshloq(484 → 1358), Qo‘shtepa(624 → 1817) va Dang‘ara(404 → 1415) tumanlarida kuzatilgan bo‘lib, bu hududlarda kichik ishlab chiqarish zonalarini va dehqonchilikka asoslangan xizmatlar rivojlanayotgani raqobat

<sup>12</sup> Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan. <https://farstat.uz/uz/>

muhitini jonlantirgan. 2020-yildan keyin, ya'ni pandemiya bosqichidan so'ng kichik biznes subektlarining sonida aniq sakrashlar kuzatilmoqda, bu esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari, soliq yengilliklari va elektron ro'yxatga olish tizimlarining soddalashtirilganini anglatadi. So'x (2024-yilda 1357 ta), Buvayda(2026 ta), va Uchko'prik tumanida (1878 ta) kabi chegaraviy yoki infratuzilmasi nisbatan sustroq hududlarda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlar soni boshqa tumanlarga nisbatan kamroq bo'lib, ushbu holat yo'l, elektr ta'minoti, kredit olish imkoniyatlari va malakali kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'liq.



### **5-rasm. Farg'ona viloyati kichik biznes korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif etilayotgan mexanizmlar sxemasi<sup>13</sup>**

Mazkur mexanizmlarning izchil va bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Farg'ona viloyatidagi kichik biznes subektlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, o'z mahsulot va xizmatlarini eksport qilish, yangi hamkorlar topish, investisiyalar jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Eng muhim jihati shundaki, bu mexanizmlar kichik biznes korxonalarida innovatsion fikrlash madaniyatini shakllantirib, tadbirkorlarning zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiradi, barqaror iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va moslashuvchanlikni ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, "Sadaf Sut" korxonasi yuqori foyda marjasi, kapital rentabelligi va past qarzdorlik darajasi korxonada resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy mustaqillik hamda barqaror foydalilikni ta'minlagan. "Benazir" MCHJ esa mehnat samaradorligi va daromad barqarorligi bo'yicha ijobiy natijalar ko'rsatgan bo'lsa-da, kapital aylanishining sustligi va sarmoyaviy faollikning pastligi raqobat salohiyatini biroz cheklaydi.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligi tahlili <sup>14</sup>

Tahliliy jihatlar	SADAF SUT	BENAZIR MCHJ	BEKOTA	ROF FOOD UNIVERSAL	BONJOUR KOKAND
Afzallik	Foyda marjasi va kapital rentabelligi yuqori, qarzdorlik darajasi past	Barqaror daromad oqimi va mehnat samaradorligi yuqori	Xarajatlar tarkibi tejamkor, moliyaviy risk past	Moliyaviy oqimlarni boshqarish mexanizmi takomillashgan	Aktivlardan foydalanish barqaror, likvidlik nisbatan yaxshi
Kamchilik	Ish haqi samaradorligi o'rtacha, ichki rezervlar to'liq ishlatilmagan	Kapital aylanishi sust, investitsiya faolligi past	Rentabellik darajasi past, foyda o'sishi sekin	Qarzdorlik ulushi yuqori, foyda marjasi o'zgaruvchan	Investitsiya rentabelligi past, aktivlar tuzilmasi eskirgan
Raqobat ustunligi	Yuqori rentabellik va foyda marjasi orqali moliyaviy yetakchilikni saqlab turadi	Mehnat unumdorligi va daromad barqarorligi bilan ajralib turadi	Xarajat tejamkorligi orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi	Aktivlar samaradorligi va pul oqimi nazoratida ustun	Qarzdorlikni nazorat qilish orqali barqarorlikni saqlaydi
Tavsiyaviy strategiyalar	Foyda reinvestitsiyasini kuchaytirish, kapitalni diversifikatsiya qilish	Investitsiya oqimini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	Rentabellikni oshirish uchun mahsulot qiymatini optimallashtirish	Qarzdorlikni kamaytirish va moliyaviy mustahkamlikni oshirish	Aktivlarni qayta baholash, investitsiya samaradorligini kuchaytirish

“BEKOTA” MCHJ korxonasi xarajatlarni nazorat qilish va tejamkorlik siyosati orqali barqarorlikni saqlagan, biroq rentabellik darajasi past bo‘lib, foyda o‘shishi sekin kechmoqda. “ROF FOOD UNIVERSAL” MCHJ korxonasi moliyaviy oqimlarni boshqarish bo‘yicha yaxshilanishga erishgan, ammo qarzdorlik ulushining yuqoriligi uning moliyaviy xavf darajasini oshirgan. “BONJOUR KOKAND” XK korxonasi esa likvidlik va aktivlardan foydalanish barqarorligi bilan ajralib turgan bo‘lsa-da, investitsiya rentabelligi pastligi hamda texnologik yangilanish zaruriyati uning moliyaviy samaradorligini cheklamoqda.

2024-yilda bozor nisbiy ulushi tahliliga ko‘ra, “Sadaf Sut” 0,95 birlik ulush bilan narx, sifat va mijoz ishonchi bo‘yicha etalon mavqeni egallagan, “Benazir” 0,91, “ROF FOOD UNIVERSAL” MCHJ esa 0,82 birlikka erishib, 2022-yildagi 0,78 ko‘rsatkichdan o‘shishni namoyon etgan. 2022–2024-yillarda “Benazir”da buyurtmaning o‘rtacha qiymati 2,9 dan 3,2 birlikkacha, “ROF FOOD UNIVERSAL”da 2,3 dan 2,7 birlikkacha oshgani mijoz ishonchi va yuqori segment mahsulotlariga talab, shuningdek mahsulot portfeli diversifikatsiyasi kuchayganini bildiradi, “BEKOTA” MCHJda esa 2023-yilda buyurtma qiymatining pasayishi narx siyosati va segmentatsiyani qayta ko‘rib chiqish zaruratidan dalolat beradi. 2024-yilda qayta murojaat qiluvchi mijozlar ulushi “Sadaf Sut”da 57 %, “Benazir”da 54 %, “BONJOUR KOKAND” XKda esa 39 % ni tashkil etib, birinchisida xizmat va yetkazib berish tizimi samaradorligi, ikkinchisida sodiq mijozlar bazasi, uchinchisida esa mijoz sodiqligi pastligi va mahsulot farqlanishi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

#### 4-jadval

### Kichik biznes korxonalarining bozor ulushi va mijozlar bilan bog'liq ko'rsatkichlari tahlili<sup>15</sup>

Korxonalar nomi	SADAF SUT			BENAZIR			BEKOTA			ROF FOOD UNIVERSAL			BONJOUR KOKAND		
	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024
Bozor nisbiy ulushi (birlik)	0,89	0,93	0,95	0,92	0,89	0,91	0,72	0,65	0,70	0,78	0,80	0,82	0,64	0,66	0,69
O'rtacha buyurtma qiymati (birlik)	2,4	2,5	2,8	2,9	3,1	3,2	2,1	2,0	2,4	2,3	2,5	2,7	2,0	2,2	2,3
Mijozlarning qayta murojaat qilish darajasi (foizda)	48	51	57	46	50	54	35	38	41	40	43	46	33	36	39
Reklama samaradorligi (foizda)	44	48	70	42	47	64	34	39	47	36	42	50	31	35	43
Mahsulot qoniqish indeksi (foizda)	71	74	89	68	70	84	60	63	71	64	68	76	58	61	68

Reklama samaradorligi va mijoz qoniqishi bo'yicha "Sadaf Sut" (70% va 89%) hamda "Benazir" MCHJ (64% va 84%) yetakchi va barqaror mavqega ega bo'lib, "ROF FOOD UNIVERSAL" MCHJ (50% va 76%) o'sish bosqichida turgani, "BEKOTA" MCHJ va "BONJOUR KOKAND" XKda esa reklama qaytimi (47–43%) va qoniqish indeksi (71–68%) pastroq bo'lgani ularning raqobat salohiyati cheklanganini anglatadi.

#### 5-jadval

### Kichik biznes korxonalarining bozor ulushi va mijozlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarining SWOT tahlili<sup>16</sup>

Elementlar	SADAF SUT	BENAZIR	BEKOTA	ROF FOOD UNIVERSAL	BONJOUR KOKAND
<b>Kuchli tomonlari</b>	Yuqori bozor ulushi, brend shakllangan	Barqaror mijoz bazasi, o'rtacha yuqori buyurtma qiymati yaxshilangan	Mahsulot narxining adaptatsiyasi	Marketing faoliyatining kengayishi va yangi mijozlar jalb etish	Mos narx siyosati va iste'molchilarga qulay xizmat
<b>Zaif tomonlari</b>	Brend obro'si shakllangani sababli xarajat bosimi ortishi	Investitsiya oqimining cheklanganligi	Brend tanilishi past	raqobatchilar bilan sifatdagi farq	Mijoz sodiqligi past, reklama ta'siri cheklangan
<b>Imkoniyatlar</b>	Yangi bozor segmentlariga chiqish, onlayn savdo kanallarini kengaytirish	Brendni diversifikatsiya qilish, sodiq mijozlar bilan aloqani mustahkamlash	Mahsulot qadoqlash va dizaynini yangilash	Savdo geografiasini kengaytirish, mijoz segmentatsiyasini oshirish	Hamkorlik dasturlari orqali ishonchni oshirish va sifatni yaxshilash
<b>Tahdidlar</b>	Bozor raqobatining kuchayishi va xarajatlarning o'sishi	Raqobatchilarning faol reklama siyosati, marketing xarajatlarning ortishi	Foyda marjasi pastligi sababli moliyaviy xavf yuqori	Bozor talabining o'zgaruvchanligi va mijozlarning brendga sodiqlik darajasining pasayishi	Texnologik ortda qolish, reklama byudjeti yetishmasligi

<sup>15</sup> Korxonalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bozor ulushi va mijozlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar korxonalarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini aniqlovchi asosiy strategik mezon hisoblanadi. SWOT tahlil natijalari korxonalar pozitsiyasi, ichki imkoniyatlari va tashqi xavflarni ob‘yektiv baholash imkonini beradi (5-jadval). Tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Sadaf Sut” korxonasi reklama samaradorligini oshirgan, buyurtma qiymatini ko‘tarishga erishgan va mijoz sodiqligini keskin yaxshilagan bo‘lsa-da, bozor ulushini saqlab qolishda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Asosiy zaiflik uzoq muddatli sodiqlikni barqaror ushlab qolish va raqobatchilar bosimiga nisbatan sezgirlikdir. Korxonaga uchun eng dolzarb imkoniyat - raqamli marketingni kuchaytirish va mahsulotni shaxsiylashtirish strategiyasidir. “Benazir” MCHJ bozordagi o‘z mavqeini uzoq vaqt saqlab kelgan va yuqori mijoz sodiqligiga ega bo‘lsa-da, so‘nggi yilda reklama samaradorligi va mahsulot qoniqligida sezilarli pasayish kuzatilgan. Bu xizmat sifatidagi inqiroz alomatlarini ko‘rsatadi. Imkoniyat sifatida esa innovatsion xizmatlar va sodiq mijozlar bilan aloqani mustahkamlash muhim. Tahdid - mijozlarning ishonchini yo‘qotib, raqiblar tomon o‘tib ketishidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligi bo‘yicha “SADAF SUT” korxonasi yetakchilikni saqlab, 2022-2024 yillar davomida ishlab chiqarish hajmini 71,5% ga oshirishga erishgan. Bu ishlab chiqarish jarayonida resurslardan to‘g‘ri foydalanish va texnologik imkoniyatlarning yuqoriligidan dalolat beradi. Energiya samaradorligi farqlanish tahliliga ko‘ra, “SADAF SUT”da optimal natija (2,90 birlik) kuzatilgan. Bu esa energiya sarfini tejash madaniyatining kuchsizligi va texnologiya eskirganligini anglatadi.

Sifat ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “SADAF SUT” mahsulot va xizmat sifati barqaror o‘shish sur‘atini saqlagan. “BENAZIR” sifati o‘rtacha darajada bo‘lgan. Yangi mahsulot ulushi tahlilida “SADAF SUT” innovatsion faoliyat orqali bozorda o‘z pozitsiyasini mustahkamlamoqda (26,3%).

## 6-jadval

### Kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili<sup>17</sup>

Korxonalar nomi	SADAF SUT			BENAZIR			BEKOTA			ROF FOOD UNIVERSAL			BONJOUR KOKAND		
	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024
Yillar →															
↓Ko‘rsatkichlar															
Ishlab chiqarish samaradorligi (kun-kishi)	214	289	294	117	123	168	78	99	113	96	118	139	82	96	108
Energiya samaradorligi (dona-so‘m)	2,84	2,95	2,90	1,33	1,40	1,48	0,98	1,20	1,18	1,12	1,26	1,35	0,92	1,03	1,12
Sifat ko‘rsatkichi (%)	84,5	87,2	86,1	72,0	74,5	73,8	61,3	63,0	62,5	65,1	67,8	69,0	58,9	60,5	61,8
Yangi mahsulot ulushi (%)	24,0	27,5	28,4	14,5	15,8	15,9	7,5	8,7	9,2	10,2	11,6	12,4	6,5	7,2	8,0
Investitsiyalar samaradorligi (%)	16,8	18,7	19,3	11,2	12,0	13,5	6,9	7,2	7,7	8,1	8,9	9,4	6,0	6,5	7,1

<sup>17</sup> Korxonalar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“BENAZIR” bu borada ehtiyotkorlik bilan harakat qilayotgan bo‘lgan. Investitsiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha “SADAF SUT” investitsiyalarning daromad keltirish mexanizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan (17,3%). “BENAZIR”da bu jarayon sekinlashgan.

